

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
2025-yil 29-avgust**

**MA’NAVIYATNING AXLOQIY ASOSLARI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100 000	-	Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000	-	Ta’lim
Magistratura mutaxassisligi:	70111101	-	Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari)

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi MAA 2205		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	kreditlar 5	
Fan/ modul turi tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya soatlari	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ma’naviyatning axloqiy asoslari	60	90	150	
2.	I. Fanning mazmuni. Fanning maqsadi – “Ma’naviyatning axloqiy asoslari” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi magistrantlarni ma’naviyatning axloqiy asoslari, ma’naviyat takomilida axloqning o‘rniga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularga fanga oid maxsus adabiyot, meyoriy hujjatlarni o‘rganib, xulosa va tahlil qila bilishni o‘rgatishdan iborat. Fanning vazifalari: magistrantlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; ularda nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qila olish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; bo‘ljak magistratlardagi jahon ilmiy axborotlari dan foydalanish, ularga axborot xurujlari, ma’naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda axloqiy qadriyatlarga tayanish, uning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish metodlari, usul va vositalarini o‘rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I – MODUL. Ma’naviyat tizimida axloq omili masalasi 1-mavzu. “Ma’naviyatning axloqiy asoslari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning qaror, farmon, farmoyish, nutqlari va asarlarida milliy ma’naviyat va milliy axloqqa oid fikrlar. “Axloq-ma’naviyatning o‘zagi” ta’rifining mazmuniy mohiyati. “Ma’naviyatning axloqiy asoslari” kursining maqsad va vazifalari. 2-mavzu. Millatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi Millatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida axloqiy tarbiya masalalari. 3-mavzu. Ma’naviyat va axloqning o‘zaro aloqadorligi va o‘ziga xos xususiyatlari				

O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari ma'naviyat va axloqning o'zaro bog'liq tomonlari tahlili.

4-mavzu. Ma'naviyat va axloq: umumiy va farqli jihatlar

Inson hayotining ma'nosi. Inson tabiati va ma'naviyat. "Axloqshunoslik" fani tarkibida ma'naviyat masalalari. Ma'naviyatning tarkibiy jihatlari va axloqning jamiyat hayotidagi o'rni. Yoshlarga oid davlat siyosatida axloqiy tarbiya masalalari.

5-mavzu. Jahon fanida ma'naviyat va axloq sohalarining nazariy o'rganilishi. Yutuqlar va muammolar

Bashariyat, axloq, ma'naviyat. Eng qadimgi davrlarda imon va axloq nisbati. "Avestoda" Tavhid e'tiqodi, asotir tafakkur va axloq. Falsafa, axloq va ma'naviyat. Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish axloqiy meros namunalaridan foydalanish.

6-mavzu. Qadim Yunon va Rimda ma'naviyat va axloq

Qadim Yunon va Rimda ma'naviyat va axloqqa oid muammolarning o'rganilishi. Evdemonizm va gedonizm. Stoiklar va kiniklar. Suqrot va Aflotunning axloqiy qarashlarida ma'naviyatga oid jihatlar. Arastuning axloqqa oid asarlari. Neoplatonizm axloq va ma'naviyat nisbati.

7-mavzu. Milliy ma'naviy merosimizda axloq, odob, ma'naviyat masalalariga e'tibor

Milliy ma'naviyatimiz tarixida yaratilgan axloq ilmiga oid asarlar. "Avesto"da axloq masalalari. Islomgacha yaratilgan turkiy bitiklarda axloqqa oid fikrlar. Islom mintaqa madaniyatida adab ilmi

8-mavzu. Mutafakkirlarning merosida axloq, odob, ma'naviyatga e'tibor

Ibn al-Muqaffaning "Al-Adab as-Sag'ir", "Al-Adab al-Kabir", "Kalila va Dimna" asarlari. Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asari milliy axloq tizimining ifodasi sifatida

II – MODUL. Yangi davr axloqshunosligida diniy va ma'naviy omillar uyg'unligi

9-mavzu. Islom axloqi va ma'naviyati

Qur'oni karim va Hadisi shariflarda islom axloqining ifodalanishi, Imom Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" asari islom axloqining qomusi sifatida. Islomda shariat va axloq. Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalar.

10-mavzu. Bosh ma'naviy qadriyatlar va asosiy axloqiy fazilatlar

Axloqiy fazilatlarning shakllanishida ma'naviyat omili. Mas'uliyat tuyg'usi shaxs axloqining o'zak tomiri sifatida. Bosh ma'naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg'ularining shaxs axloqiy fazilatlarning shakllanishidagi o'rni. Axloqiy fazilatlarni tasniflash muammosi.

11-mavzu. Axloqiy qusurlar ma'naviyatsizlik belgisi sifatida

Inson xulqi va axloqiy tarbiya. Tarbiyachi va tarbiya. Tarbiyachi mas'uliyati va unga qo'yilayotgan axloqiy talablar. Imon va axloq. Ateistik axloq. Ma'naviyatsizlik va johillik. Taqlidiy imon va axloqiy qusurlar. Axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari. Axloqiy qusurlar, ularning yosh avlod ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sirlari.

12-mavzu. Ma'naviyat va axloqda baxt muammosi

Insonning yashashdan maqsadi va baxt muammosi. Jahon ilmida baxt muammosiga munosabatlar. Baxt va lazzat. Baxt – ko'ngil ishi. Imon va baxt. Baxtli bo'lish mas'uliyati. O'tkinchi baxt va boqiy baxt. Haqiqiy baxt – inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unligida. Axloqiy fazilatlar va qusurlar inson baxti va baxtsizligini belgilovchi omillar sifatida. Ma'naviyatsizlik – baxtsizlik. Ma'naviy jasorat tushunchasi.

13-mavzu. Ma'naviyat tizimida adabiyot va san'at. Milliy madaniyatimizda badiiy adabiyotning mavqei

Mumtoz adabiyot va ma'naviyat. Islomgacha turkiy tildagi adabiyotda imon-e'tiqod, axloq va badiiy tafakkur masalalari. Islom mintaqa madaniyati doirasida arab, fors, turkiy tildagi adabiyotning uyg'un rivojlanishi. Arab va fors tilidagi she'riyatning turkiy adabiyot bilan o'zaro ta'sirlari.

Adab ilmi va Ahmad Yassaviy she'riyatida ma'naviyat. Tasavvuf she'riyatining ma'naviy mohiyati. Turkiy she'riyat rivoji.

14-mavzu. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari

Mustaqil O'zbekiston davlatining yosh avlodni milliy ma'naviy-axloqiy meros ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tadbirlari. Jamiyatda axloqiy fazilat va qusurlarning shakllanishiga sabab bo'luvchi turli omillarning kelib chiqish manbalari va ularning ilmiy tadqiqi.

15-mavzu. Yosh avlod axloqiy tarbiyasida mumtoz milliy san'at va adabiyot

Yosh avlod axloqiy tarbiyasida mumtoz milliy san'at va adabiyotimiz, jahon madaniyati va san'atining yuksak namunalaridan unumli foydalanishning shakl va usullari.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

“Ma’naviyatning axloqiy asoslari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Ma’naviyat va axloqning o‘zaro aloqadorligi va o‘ziga xos xususiyatlari. Jahon fanida ma’naviyat va axloq sohalarining nazariy o‘rganilishi. Yutuqlar va muammolar.

Milliy ma’naviy merosimizda axloq, odob, ma’naviyat masalalariga e’tibor. Islom axloqi va ma’naviyati.

Qur’oni karim va Hadisi shariflarda islom axloqining ifodalanishi

Axloqiy fazilatlarning shakllanishida ma’naviyat omili

Mas’uliyat tuyg‘usi shaxs axloqining o‘zak tomiri sifatida

Axloqiy fazilatlarni tasniflash muammosi

Bosh ma’naviy qadriyatlar va asosiy axloqiy fazilatlar

Axloqiy qusurlar ma’naviyatsizlik belgisi sifatida

Axloqiy qusurlar, ularning yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sirlari

Ma’naviyat va axloqda baxt muammosi.

Ma’naviyat tizimida adabiyot va san’at. Milliy madaniyatimizda badiiy adabiyotning mavqei.

Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari.

Amaliy mashg‘ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- dokladlar tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- individual va guruhliy o‘quv loyihasi;

- keys-topshiriqlarini bajarish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;

- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbaalar bilan ishlash;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg‘ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;

ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

	1. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yosh avlodni milliy ma’naviy-axloqiy meros ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tadbirlari. 2. Milliy ma’naviyatimiz tarixida axloq ilmiga oid yaratilgan asarlar. 3. Ma’naviyatning axloqiy asoslari” kursining maqsad va vazifalari 4. Taraqqiyot strategiyasida axloqiy tarbiya masalalari. 5. Inson tabiati va ma’naviyat 6. Inson hayotining ma’nosi 7. Ma’naviyatning tarkibiy jihatlari va axloqning jamiyat hayotidagi o‘rni 8. Yoshlarga oid davlat siyosatida axloqiy tarbiya masalalari 9. Bashariyat, axloq, ma’naviyat 10. Falsafa, axloq va ma’naviyat 11. Qadim Yunon va Rimda ma’naviyat va axloqqa oid muammolarning o‘rganilishi 12. Suqrot va Aflotunning axloqiy qarashlarida ma’naviyat 13. Arastuning axloqqa oid asarlari 14. Islomda axloqqa oid fikrlar 15. Islomgacha yaratilgan turkiy bitiklarda axloqqa oid fikrlar. 16. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asari milliy axloq tizimining ifodasi sifatida. 17. Qur’oni karim va Hadisi shariflarda islom axloqining ifodalanishi. 18. Imom Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asari islom axloqining qomusi sifatida. 19. Bosh ma’naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg‘ularining shaxs axloqiy fazilatlarining shakllanishidagi o‘rni. 20. Axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari. 21. Yevropa ma’rifatparvarlirining axloqiy qarashlari. 22. Mustaqillikni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari. 23. Qur’oni karim va Hadisi shariflarda islom axloqining ifodalanishi 24. Islomda shariat va axloq 25. Axloqiy fazilatlarining shakllanishida ma’naviyat omili 26. Mas’uliyat tuyg‘usi shaxs axloqining o‘zak tomiri sifatida 27. Axloqiy fazilatlarni tasniflash muammosi 28. Ma’naviyatsizlik va johillik 29. Axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari 30. Axloqiy qusurlar, ularning yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sirlari Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar). Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • “Ma’naviyatning axloqiy asoslari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona va oilaning,

	mahallaning mas'uliyati, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim tarbiya muassasalarining mas'uliyati, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, xalollik va vafodorlik shaxs ma'naviy fazilatlarini to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim; (bilim) • “Ma'naviyatning axloqiy asoslari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini, axloqning ma'naviy asoslarini anglab yetishi, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona va oilaning, mahallaning mas'uliyatini, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim tarbiya muassasalarining mas'uliyatini, shaxsning ma'naviy komillik darajasiga erishishi borasidagi vazifalarni, barkamol shaxsni tarbiyalashda musulmon Sharq pedagogik ta'limi tajribalari hamda Qur'on Karim va Hadisu Sharifning shaxs ma'naviyatining shakllanishiga ta'sirini tahlil eta olishi zarur; (ko'nikma). • “Ma'naviyatning axloqiy asoslari” fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini, axloqning ma'naviy asoslari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona, oila-mahalla, ta'lim tarbiya muassasalarining mas'uliyati, shaxsning ma'naviy komillik darajasiga erishishi borasidagi vazifalar, barkamol shaxsni tarbiyalashda musulmon Sharq pedagogik ta'limi tajribalari, Qur'on Karim va Hadisu Sharifning shaxs ma'naviyatining shakllanishiga ta'siri, Sharq mutafakkirlari merosining shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalarining o'rniga oid bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi kerak; (malaka).
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Sobirova M.A., Zamonov Z.T., Niyozmatov A.B., Xo'jayev M.O. Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari. –Toshkent: “Nodarabegim” nashriyoti, 2022.

	2. Jumaniyozov X.S., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Nodarabegim” nashriyoti, 2020. 3. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2019. 4. Xoliqov I., Sobirova M., Rustamov M. Ma'naviyatning axloqiy asoslari. –Toshkent: TDPU, 2013. Qo'shimcha adabiyotlar: 6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017. 7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018 8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2021. – 464 b. 9. Mirziyoyev Sh.M Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2019. – 400 b. 9. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2023. 10. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: 2021. 11. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida” Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son) 12. O'zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida” qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 15-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son 13. Qosimov B. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (izohli, ko'rgazmali vositalar to'plami). – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2001 yil. 14. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2002 yil. Axborot manbalari: 1. http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 4. www.pedagog.uz 5. www.apkpro.ru/content/view 6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten www.relarn.ru/conf/conf2007
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va

	universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ul: Z.Boytemirova – Qo‘qon DU, Milliy g‘oya va huquq kafedrası dotsent.
9.	Taqrizchi: Mamatov. M.A. – FarDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc) M.Karimov – Qo‘qon shahar 25-maktab direktori.